

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINI BOSHQARISHDA HUQUQIY SAVODXONLIKNING O'RNINI

Komilova Muslima

Toshkent shahridagi Puchon universitetining magistratura 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14274844>

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqiy savodxonlik — bu insonning qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mohiyatini tushunish va ularni o'z faoliyatida to'g'ri qo'llay olish qobiliyati ekani, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari uchun huquqiy savodxonlik muhim ahamiyatga egaligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan faoliyatlarni tashkil etish haqida mavzular yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, qonun, huquqiy axborot, huquqiy immunitet, boshqaruv samaradorligi, huquqiy faoliyatlar.

So'nggi yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida” PF-5618-son Farmoni mazkur yo'nalishda oldimizda turgan vazifalarni belgilab bergan muhim hujjat bo'ldi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda. Xususan:

birinchidan, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari tizimli va uzviy tashkil etilmayapti. Jamiyatda, oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida va tashkilotlarda huquqiy axborotlarni yetkazishning ta'sirchan mexanizmi mavjud emas. Shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash g'oyalari aholi, ayniqsa, davlat xizmatchilari ongiga yetarli darajada singdirilmayapti;

ikkinchidan, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim jarayonlari huquqiy tarbiya bilan uyg'un olib borilmayapti, aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'zbek xalqining tarixi, urf-odatlarini, milliy qadriyatlariga tayanilmayapti;

uchinchidan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir tadbirlarni tashkil etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik tizimi yaratilmagan, ijtimoiy sheriklik prinsipi asosida ishlar tashkil etilmagan;

to'rtinchidan, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishning aniq maqsadli chora- tadbirlari belgilanmagan;

beshinchidan, jamiyatda manzilli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning faol ishtiroki ta'minlanmayapti, bu borada yuqori natijadorlik va samaradorlik ko'zga tashlanmayapti;

oltinchidan, huquqiy tadbirlar hamon an'anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmoqda, bu borada targ'ibotning innovatsion usullaridan, shu jumladan, veb-texnologiyalardan foydalanilmayapti, huquqiy yo'nalishdagi veb-saytlar yetarli emas;

yettinchidan, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlari mavjud emas, bu borada tadbirlar nomigagina tashkil etilmoqda, huquqiy

bilimlarni yuksaltirish bo'yicha huquqiy adabiyotlarni chop etish va tarqatish, ilmiy izlanishlarni olib borish ishlari samarasiz amalga oshirilmoqda.

Huquqiy madaniyat murakkab, serqirra hodisa bo'lib, u, birinchi navbatda:

- huquqiy ongning muayyan darajasi, ya'ni huquqiy voqelikni ongli ravishda tushunib, o'zlashtirishni;

- umumiy madaniy asoslar, yuksak madaniylik darajasi, milliy negizlar va manbalar, tarixiy xotira, urf-odatlar va an'analarni;

- aholi tomonidan qonunlarni bilishning tegishli darajasi, huquq normalariga hurmatning yuqori darajasini, ular nufuzini;

- huquqiy faoliyat, huquqiy ijodkorlik, huquqni muhofaza etish, boshqaruv va boshqa organlar ishining samarali usullarini;

- fuqarolar va mansabdor shaxslarning qonunga itoatkorligini talab etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda huquqiy savodxonlikning o'rni mavzusi zamonaviy ta'lim tizimidagi boshqaruv samaradorligini oshirish uchun juda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi huquqiy savodxonlik rahbarlar va xodimlarning qonuniy normalarni bilishi va amalga oshirishi orqali ta'lim tashkilotining barcha jabhalarida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Quyida batafsil ma'lumotlar keltiriladi:

Huquqiy savodxonlik — bu insonning qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mohiyatini tushunish va ularni o'z faoliyatida to'g'ri qo'llay olish qobiliyatidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu tushuncha tashkilotni boshqaruv jarayonidagi qonuniy asoslarni va yuridik hujjatlarni bilishni nazarda tutadi.

Huquqiy savodxonlik rahbarlar uchun quyidagi yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega:

- Qonunlarga muvofiq ish yuritish: Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari qonunchilik asosida ish yuritishi kerak. Bu esa mehnat munosabatlari, moliyaviy operatsiyalar, bolalar xavfsizligini ta'minlash va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda qonunlarga amal qilishni talab qiladi.

- Muammolarni samarali hal qilish: Qonuniy asosda ish ko'radigan rahbarlar muammolarni samarali hal qiladi va u yoki bu vaziyatdagi qonuniy yechimlardan tezda foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi.

- Xavfsiz muhit yaratish: Bolalar xavfsizligini ta'minlashda sanitariya-gigiyenik normalar, texnika xavfsizligi va boshqa qonunlar doimiy ravishda bajarilishi kerak. Bu esa bolalarning hayotini va sog'lig'ini saqlashga yo'naltirilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan faoliyatlar quyidagi yo'nalishlarda tashkil etilishi mumkin:

- Treninglar va seminarlar: Mutassadi mutaxassislar yordamida o'quv mashg'ulotlari va seminarlar o'tkazish. Bu orqali rahbarlar va xodimlar yangi qonunlar va meyoriy hujjatlardan xabardor bo'ladi.

- Yuridik maslahatchilar bilan hamkorlik: Yuridik maslahatchilar yoki huquqshunoslar bilan hamkorlik qilib, qonuniy masalalar bo'yicha maslahatlar olish. Bu nafaqat muammolarni hal qilishda yordam beradi, balki xato yoki qonun buzilishidan qochish imkonini ham taqdim etadi.

- Qonunchilikni muntazam kuzatib borish: Yangi qonunlar, meyoriy hujjatlar, amaldagi qonunlarga o'zgarishlar kiritilishi kabi yangiliklardan xabardor bo'lish va ularni faoliyatda joriy etish.

Huquqiy savodxonlik maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining turli jabhalarida quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- Bolalar xavfsizligi va salomatligini ta'minlash: Qonunchilikda belgilangan meyorlar va qoidalarga muvofiq ravishda sanitariya-gigiyenik sharoitlarni yaratish, xavfsizlik talablariga rioya qilish.

- Mehnat munosabatlarini qonuniy asosda yo'lga qo'yish: Xodimlarning mehnat huquqlari, ularning maoshlari, mehnat sharoitlari va qonuniy talablar asosida ish tashkil etish.

- Moliyaviy va kadrlar masalalarini hal qilish: Qonunlarga muvofiq moliyalashtirish jarayonlarini boshqarish, tenderlar va xaridlarni qonuniy asosda amalga oshirish.

- Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlari darajasini oshirish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlari darajasini oshirish bugungi kun dolzarb masalasi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining manfaatlar to'qnashuvi natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan korrupsion holatlar:

- xodimlarni ishga qabul qilish;
- bolalarni bog'chaga qabul qilish;
- bayramlarda sovg'alar olish;
- mahalliychilik, urug'-aymoqchilik;
- imtiyozlar berish;
- adolatsizlik;
- e'tiborsizlik;
- bilimsizlik;
- ma'naviy rag'batlantirish (ma'lum bir naf evaziga);
- moddiy rag'batlantirish (ma'lum bir naf evaziga);
- oshxona va omborxonalarni nazorat qilmaslik;
- o'tilayotgan mashg'ulotlarni nazorat qilmaslik va hokazolar.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining huquqiy savodxonligi maktabgacha ta'lim tashkilotining ichki va tashqi imijini yaxshilaydi. Bu jamoatchilik ishonchini oshiradi va tashkilotning nufuzini ko'tarishga yordam beradi. Qonunlarni to'g'ri bilish va ularga amal qilish bolalar va ularning ota-onalari uchun xavfsiz va ishonchli ta'lim muhitini yaratishga hissa qo'shadi.

Shu bilan birga, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish faqatgina tashkilot rahbarlari emas, balki barcha xodimlar uchun dolzarbdir. Chunki bu ularning qonunchilikka amal qilishi, ish jarayonida adolatli va to'g'ri yo'nalishda harakat qilishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida”gi Qonuni. 2017-yil 4-yanvar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinin 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5729-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni.
5. Mirziyoev Sh.M. “Konstitutsiya - erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir”. O‘zbekiston. 2018 yil
6. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. – T.: “O‘zbekiston”, 2017-yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008 yil 7 yanvar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3651-sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 maydagi PQ-4736-sonli “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.